

KONSTITUTSIYA – O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING POYDEVORI

Sobirov Jamshidbek¹, D. M. Ergashev²

Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi

AndDU Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6722262>

Taxminan, bundan o‘ttiz yil muqaddam dunyo ahli O‘zbekiston degan davlat haqida hech nimani bilmas edi. Chunki, O‘zbekiston hech bir sohada hozirgi chalik ildamlamayotgan edi. Hozir esa yersharing istalgan burchagida yashaydigan insondan davlatimiz haqida so‘ralsa, bemaolol yurtimiz haqida ijobiy fikrlarni bera oladi. Istiqlol deb atalmish buyuk ne‘mat xalqimizga berilgandan so‘ng, mamlakatimizda xatto tasavvurga ham sig‘maydigan o‘zgarishlarning bo‘lgani hech kimga sir emas. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov mustaqil davlatga Davlat ramzlari bilan birqatorda Asosiy qonun, ya‘ni Kontitutsiyaning kerakligini yaxshi tushungan va hali mustaqillik qo‘lga kiritilmasidan uni ishlab chiqishga kirishgan. I.A.Karimov raisligidagi Konstitusiyaviy komissiyaning ikki yillik tinimsiz mehnati natijasida va bundan tashqari xalqning xohish-istaklari asosida 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashing XII chaqiriq XI sessiyasida davlatimizning amaldagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu Oliy hujjat xalqimizning chin ma‘nodagi ishonchi, uni himoyalovchi qalqondir. Chunki, Konstitutsiya jamiyatning har – bir jabhasini, xususan, hech bir davlat Konstitutsiyasida uchramaydigan mavzu, ya‘ni oilaviy munosabatlarni ham o‘zida aks ettirgan. Davlatimizning tashqi siyosati ham bundan mustasno emas. Konstituitsiyaning bu mavzuga alohida 4-bobi ajritilgan. O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatini Konstitutsiyada belgilanganidek, xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan normalari asosida olib boradi. Ayni vaqtda xalqaro munosabatlarning faol a‘zosimiz. Davlatimizning birinchi Prezidenti istiqlolning ilk kunlaridan boshqa davlatlar bilan munosabatlarni o‘rnatishga, rivojlantirishga alohida e‘tibor berdi. Chunki, har qaysi davlat mavjud bo‘lar ekan, rivojlanishda unga albatta istalgan davrda ittifoqdoshlar kerak bo‘ladi. Endi, O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning to‘laqonli sub‘ektiga aylandi. Jahon hamjamiyati O‘zbekistonni quchoq ochib kutiboldi. Davlatimiz uchun xalqaro tashkilotlar eshigi ochildi. 1992-yil 2-mart Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1993-yil fevralda EXTT, 1993-yil oktyabrda UNESCO, 2001-yil Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va boshqa nufuzli tashkilotlarga teng huquqli a‘zolikka qabul qilindi. I.A.Karimov 1993-yil 27-seniyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ilk ishtiroki va nutqi bilan dunyo jamoatchiligi e‘tiborini davlatimizga jalb qildi.

Bugun O'zbekiston o'z so'zini dunyo ahli uchun yuksak minbarlardan turib ayta oladi. Lekin, ushbu jarayonlarda ham davlatimiz ma'lum qoidalarga amalqiladi. Bular, Konstitusiyaning 17-moddasida belgilanganidek, davlatlarning suveren tengligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, boshqa davlatlarni ichki ishlariga aralshmaslik, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, xalqlarning o'zaro tengligi kabilardir. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu qoidalar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari hisoblanadi. O'zbekiston istalgan sohada davlatlararo munasabatlarga kirishish jarayonida doimo bu qoidalardan chetlashmaydi. Bugungi rivojlangan davrda dunyoning ko'plab davlatlari mamlakatimiz bilan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy, gumanitar va boshqa sohalarda aloqalar o'rnatishdan, hamkorlik qilishdan manfaatdor. Chunki, O'zbekistonning hozirgi holati va qiyofasi ularning talabiga to'la javob beradi. Turli sohalarda olib borilayotgan hamkorliklar bundan dalolat beradi. Ayniqsa, hozirgi paytda mamlakatimizning davlatlararo munosabatlarida iqtisodiy hamkorlik yetakchilik qiladi.

O'zbekistonda aynan iqtisodiy- ijtimoiy sohalar uchun yaratilgan sharoitlar hamkorlarimizning ham e'tibor markazida. 2018-yil avgust oyida O'zbekiston yana bir omadli hamkorlik dastyurini imzoladi. AQSH Davlat Departamenti O'zbekiston bilan turizm sohasi bo'yicha hamkorlik qilish tashabbusi bilan chiqdi. Bu AQSH diplomatiyasida nihaytada kam uchraydigan holat. Birinchi prezidentimiz olib brogan ichki va tashqi siyosatida juda ko'plab global muammolarga ahamiyat bergan. Bu muammolar davlat rahbarlaridan alohida e'tibor talab etishini ko'p marotaba ta'kidlagan. Ayniqsa, Bugungi davrni butkul larzaga solayotgan diniy ekstremizm va terrorizm balosini bartaraf etish uchun. I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildirgan: "Bu baloni oldini olish uchun ular bilan qurolli to'qnashuvlar qilish samarasiz. Uni bartaraf etish uchun biz ularni moddiy jihatdan ta'minlayotgan, ularga yetarlicha pul, qurol-yarog'larni joylarga yuborayotgan shaxslar yoki bundan manfaatdor bo'lganlarga qarshi kurashmog'miz darkor.

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona ichki va tashqi siyosati dunyo jamoatchiligining yurtimizga qiziqishini orttirmoqda. E'tibor qozonish bilan birga davlatimiz xavfsizlik nuqta'i nazaridan tinchlikka bo'layotgan tahdidlarga doimo o'z so'zi va puxta o'ylangan rejalarini bayon etib amaliyotga joriy etmoqda. Xususan, O'zbekiston o'z tashqi siyosatida hamisha qo'shni Afg'onistondagi holatga alohida e'tibor berib keladi. Marhum birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Birlasgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1993-yil 27-sentyabrdagi 48-sessiyasida qilgan ilk ma'ruzasida ham bumavzuga alohida urg'u berib o'tgan. Shundan buyon Afg'oniston muammosi

xalqaro tashkilotlarning turli sessiya va sammitlarida qizg'in muhokama etiladi. Amaldagi Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev esa Afg'oniston muammosi bo'yicha poytaxtimizda Toshkent konferensiyasini tashkiletdi. Chunki, I.A.Karimov ham, amaldagi prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ham yaqin qo'shnimiz bo'lmish Afg'on xalqini tinch hayot kechirishlarini, bu davlatni har sohada rivojlanib jahonda o'z o'rniga ega bo'lishini xohlaydilar. O'zbekiston o'z tashqi siyosatida hech qanday harbiy harakatlarga qo'shilmaslik tamoyiliga amal qiladi. Lekin, harbiy sohada boshqa davlatlar bilan tajriba almashib keladi. O'zbekiston NATOning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturining faol a'zosi. Davlatimiz bugungi davrda olib borayotgan odilona siyosati tufayli jahonda katta e'tibor va hurmatga ega bo'ldi. Chunki, O'zbekiston mustaqillikning ilk kunlaridanoq o'z yo'lini tanladi va bu yo'ldan og'ishmay harakat qilib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. «O'zbekiston» nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2018.
2. Islom Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». «Ma'naviyat». Toshkent 2008.
3. Shavkat Mirziyoyev « Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi » "O'zbekiston" Toshkent 2017.
4. Internet ma'lumotlari:
5. Ziyoz.uz.net
6. Wikipediya
7. Arxiv.uz